

KOREYS TILIDA “보다” KO‘MAKCHI FE’LINING SEMANTIK- FUNKSIONAL EKVIVALENTLARI

Yunusova Gulshoda Dilshodovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

E-mail: gulyamir9@gmail.com

Phone number: +998-993909228

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tilidagi “보다” ko‘makchi fe’lining semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor uning tajriba, sinash va tekshirish ma’nolariga qaratiladi. Shuningdek, “보다” ko‘makchi fe’lining ichki ekvivalentlari 경험하다, 체험하다, 시도하다, 확인하다 kabi leksik birliklar va grammatik konstruktsiyalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “보다” ko‘makchi fe’li koreys tilidagi subyektiv tajribani ifodalovchi yetakchi vositalardan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: koreys tili, ko‘makchi fe’l, 보다, tajriba, sinash, tekshirish, ekvivalentlik, semantika, subyektivlik, grammatik konstruktsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются семантические и функциональные особенности вспомогательного глагола «보다» в корейском языке. Основное внимание уделяется его значениям опыта, попытки и проверки. Также проводится сравнительный анализ с внутренними эквивалентами, такими как 경험하다, 체험하다, 시도하다, 확인하다 и другими конструкциями. По результатам исследования установлено, что вспомогательный глагол «보다» является одним из главных средств выражения субъективного опыта в корейском языке.

Ключевые слова: корейский язык, вспомогательный глагол, 보다, опыт, попытка, проверка, эквивалентность, семантика, субъективность, грамматическая конструкция.

Annotation: This article examines the semantic and functional properties of the auxiliary verb “보다” in the Korean language. The focus is on its meanings of experience, trial, and verification. A comparative analysis is conducted with internal equivalents such as 경험하다, 체험하다, 시도하다, 확인하다 and other related constructions. The study concludes that “보다” serves as one of the key devices for expressing subjective experience in Korean.

Key words: Korean language, auxiliary verb, 보다, experience, trial, verification, equivalence, semantics, subjectivity, grammatical construction.

Kirish. Koreys tili agglutativ til sifatida fe'llarning turli harakat turlarini ifodalashda keng imkoniyatlarga ega¹. Asosiy fe'llar bilan birga qo'llaniladigan ko'makchi fe'llar harakatning maxsus ma'nolarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi². Ular orasida “보다” (ko'rmoq) fe'li o'zining semantik ko'p qirraligi bilan alohida ajralib turadi. Mustaqil fe'l sifatida “ko'rmoq”, “kuzatmoq” ma'nolarini ifodalasa, ko'makchi fe'lga aylanganda esa subyektning tajriba, sinash va tekshirish kabi murakkab ma'nolarini anglatadi. Ushbu maqolada “보다” ko'makchi fe'lining semantik-funksional imkoniyatlari tahlil qilinib, uning ichki ekvivalentlari bilan qiyosiy tahlili asosida koreys tilida subyektiv tajribani ifodalashdagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida keltirilgan misollar ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, ularning lingvistik tahlili beriladi.

Asosiy qism.

¹ Sohn Ho-Min. The Korean Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1999. 20-30-bb.

² 김방한. 보조용언의 의미 기능 연구. 한국어학, 제32호 (№32), 45-68쪽, 2005. – P. 45.

1. “보다” fe’lining tajriba va sinab ko‘rish ma’nolari.

“보다” ko‘makchi fe’li eng avvalo, shaxsiy tajribani ifodalash uchun qo‘llaniladi³. Bu holatda u “-아/어 보다” shaklida fe’lga qo‘shilib, subyektning biror harakatni bajarib ko‘rganligi yoki ko‘rmaganligi haqidagi ma’lumotni yetkazadi. Misol: 비빔밥을 먹어 봤어요? Bibimbapni yeb ko‘rganmisiz?

Ushbu savol oddiygina ovqat yeyish haqida emas, balki Bibimbapni tatib ko‘rish tajribasiga ega ekanligi haqida so‘ramoqda. Bunda “보다” fe’li harakatning yakuniy natijasini emas, balki uning subyekt tomonidan qilinganligini, ya’ni tajriba orttirilganligini ifodalaydi. Bu ma’noda “보다” fe’lini 경험하다 (tajriba qilmoq), 체험하다⁴ (bevosita tajriba qilmoq) yoki 직접 ~하다 (o‘zi bajarib ko‘rmok) kabi leksik birliklar bilan ekvivalent deb qarash mumkin. Misol uchun, 비빔밥을 먹는 경험이 있어요? (Bibimbap yeyish tajribangiz bormi?) kabi savol ham xuddi shu ma’noni anglatadi. Biroq, “-아/어 보다” konstruksiyasi nutqda oddiyoq va ko‘proq qo‘llanadi.

2. “보다” fe’lining sinash va imkoniyatni tekshirish ma’nolari. “보다” fe’lining ikkinchi muhim funksiyasi - biror ishni sinab ko‘rishga undash yoki harakatning imkoniyatini tekshirishdir⁵. Bu holatda u taklif yoki buyruq ma’nosini beradi. Misol: 이 책을 읽어 보세요. (Bu kitobni o‘qib ko‘ring.)

Bu misolda “보다” faqat o‘qish harakatini ifodalamaydi, balki subyektning bu ishni bajarishga, ya’ni kitobning qiziqarli yoki foydali ekanligini sinab ko‘rishga undaydi. Bu yerda “urinish” yoki “imkoniyatni tekshirish” ma’nosi ustunlik qiladi.

³ 이익섭. 한국어 문법 연구. - 서울: 학연사, 1995; 최현배. 우리말본. - 서울: 신구문화사, 2004.

⁴ 국립국어원. 표준국어대사전. - 서울: 두산동아, 2008.

⁵ Martin S. E. A Reference Grammar of Korean. Tokyo: Tuttle Publishing. 1992. – 200-210 쪽.

Bunday kontekstda “보다” fe’lining ekvivalentlari sifatida 시도하다 (urinmoq, sinab ko‘rmoq), 한번 ~하다 (bir marta qilib ko‘rmoq) yoki 노력하다 (harakat qilmoq) kabi fe’llar kelishi mumkin. Masalan, 이 책을 한번 읽어 보세요 jumlasida ham xuddi shunday ma’noni beradi. “보다” bu ma’noda harakatga ma’lum subyektivlikni qo‘shadi, ya’ni bajariladigan ishning natijasi muhimligini ta’kidlaydi.

3. “보다” fe’lining tekshirish va aniqlash ma’nolari. Ayrim holatlarda “보다” ko‘makchi fe’li harakat natijasining haqiqiylikni tekshirish, aniqlash ma’nosida qo‘llaniladi. Misol: 그 말이 사실인지 확인해 봅시다. (Keling, bu gap rostligini tekshirib ko‘raylik.)

Bu misolda “확인하다” (tekshirmoq) fe’li bilan birga “보다” fe’lining qo‘llanishi harakatning ma’nosini kuchaytiradi. Oddiygina “tekshirish” emas, balki biror ma’lumotning to‘g‘riligini sinovdan o‘tkazib ko‘rish, uning haqiqiylikiga amin bo‘lish ma’nosini anglatadi. Bu holatda “보다” fe’li 검증하다 (sinovdan o‘tkazmoq) yoki 살펴보다 (ko‘zdan kechirmoq) kabi fe’llarning ma’nosiga yaqinlashadi. Bu qo‘llanishlar harakatning obyektiv natijasini emas, balki subyektning shubhasini yo‘qotish yoki ma’lumotni tasdiqlash uchun qilingan urinishini ifodalaydi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “보다” ko‘makchi fe’li koreys tilida subyektiv tajriba, sinov va tekshirishni ifodalashda markaziy grammatik vositalardan biridir. Uning noyob xususiyati shundaki, u nafaqat harakatni, balki harakat bilan bog‘liq bo‘lgan subyektning hissiyotini, maqsadini va unga bo‘lgan munosabatini ham aks ettiradi. Uning leksik ekvivalentlari 경험하다, 체험하다, 시도하다, 확인하다 kabi fe’llar bilan qiyosiy tahlili “보다” ko‘makchi fe’lining keng semantik diapazonini va koreys tilidagi nutqiy madaniyatda o‘ziga xos

ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu fe’l koreys tilining boyligini va uning muloqotdagi nozik ma’nolarni ifodalashga qodirligini ko‘rsatuvchi yorqin misoldir. Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 국립국어원. 표준국어대사전. - 서울: 두산동아, 2008.
2. 이익섭. 한국어 문법 연구. - 서울: 학연사, 1995.
3. 김방한. 보조용언의 의미 기능 연구. 한국어학, 제32호 (№32), 45-68쪽, 2005.
4. 최현배. 우리말본. - 서울: 신구문화사, 2004.
5. Sohn Ho-Min. The Korean Language. Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
6. Martin S. E. A Reference Grammar of Korean. Tokyo: Tuttle Publishing, 1992.